
Noverbal va verbal signallar orqali muloqotda axborotni idrok etish

Abdullayeva Zulfiya Mirolimovna

zbmsz@bk.ru

*Fransuz filologiyasi kafedrası o'qituvchisi,
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston
Milliy universiteti*

Annotatsiya *Ushbu maqolada verbal va noverbal muloqot jarayonida axborot uzatish va idrok etish mexanizmlari tahlil qilinadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, insonning his-tuyg'ulari, yuz ifodalari va imo-ishoralari axborotni samarali yetkazishda muhim rol o'ynaydi. Maqolada verbal va noverbal signallar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, ularning ma'noni idrok etish va o'zlashtirish jarayonlaridagi o'rni, shuningdek ijobiy va salbiy kommunikativ holatlarning shakllanishi o'rganiladi. Imo-ishoralar va og'zaki nutq o'rtasidagi muvozanat, ularning kommunikativ samaradorlikka ta'sirini ko'rsatuvchi uchburchak modeli va ataylab cheklangan axborot uzatish misollari keltirilgan. Maqolada shaxslararo muloqotda verbal va noverbal vositalarning funksional ahamiyati bo'yicha ilmiy ma'lumotlar tahlil etilib, ularning o'zaro ta'siri va amaliy qo'llanilishidagi o'ziga xos xususiyatlar yoritilgan. Xulosa qilish mumkinki, samarali muloqot uchun nafaqat so'zlar, balki uning ifodasi, ovoz toni, ko'z aloqasi, jismoniy ishoratlar va jamiyatdagi madaniyat ramzlari ham muhimdir. Ushbu tadqiqot kommunikatsiya jarayonida verbal va noverbal vositalarning integral ta'sirini chuqur o'rganish orqali o'zaro tushunish va ijtimoiy aloqalar samaradorligini oshirish yo'llarini aniqlashga xizmat qiladi. Maqola o'quvchiga nafaqat nazariy bilim, balki kundalik hayotda, kasbiy muloqotda va madaniyatlararo aloqalarda ushbu bilimlarni qo'llash imkoniyatini beradi.*

Kalit so'zlar *Verbal, noverbal, holat, ongli, vositalar, muloqot*

Восприятие информации в коммуникации посредством невербальных и вербальных сигналов

Абдуллаева Зульфия Миरोлимовна

zbmsz@bk.ru

*Преподаватель кафедры французской
филологии,
Национальный университет Узбекистана
имени Мирзо Улугбека*

Аннотация *В данной статье анализируются механизмы передачи и восприятия информации в процессе вербальной и невербальной коммуникации. Исследования показывают, что важную роль в эффективной передаче информации играют человеческие эмоции, мимика и жесты. В статье изучается взаимосвязь вербальных и невербальных сигналов, их роль в процессах восприятия и усвоения смысла, а также в формировании позитивных и негативных коммуникативных ситуаций. Представлены баланс между жестами и устной речью, треугольная модель, демонстрирующая их влияние на эффективность коммуникации, и примеры преднамеренно ограниченной передачи информации. В статье анализируются научные данные о функциональном значении вербальных и невербальных средств в межличностной коммуникации, выделяются*

особенности их взаимодействия и практического применения. Можно сделать вывод, что для эффективной коммуникации важны не только слова, но и их выражение, тон голоса, зрительный контакт, физические жесты и культурные символы в обществе. Цель данного исследования – выявить пути улучшения взаимопонимания и эффективности социальных взаимодействий путем глубокого изучения комплексного влияния вербальных и невербальных средств на коммуникативный процесс. Статья предоставляет читателю не только теоретические знания, но и возможность применить эти знания в повседневной жизни, профессиональном общении и межкультурной коммуникации.

Ключевые слова Вербальный, невербальный, состояние, сознательный, средства, коммуникация

Perception of Information in Communication through Nonverbal and Verbal Signals

Zulfiya Mirolimovna Abdullaeva

zbmsz@bk.ru

Lecturer, Department of French Philology,
Mirzo Ulugbek National University of Uzbekistan

Annotation *This article analyzes the mechanisms of information transmission and perception during verbal and nonverbal communication. Research shows that human emotions, facial expressions, and gestures play a crucial role in the effective transmission of information. The article examines the relationship between verbal and nonverbal cues, their role in the processes of perception and assimilation of meaning, as well as in the formation of positive and negative communicative situations. The article presents the balance between gestures and oral speech, a triangular model demonstrating their influence on communication effectiveness, and examples of intentionally limited information transmission. The article analyzes scientific data on the functional significance of verbal and nonverbal means in interpersonal communication, highlighting the specific features of their interaction and practical application. It can be concluded that effective communication requires not only words but also their expression, tone of voice, eye contact, physical gestures, and cultural symbols in society. The purpose of this study is to identify ways to improve mutual understanding and the effectiveness of social interactions through an in-depth study of the complex influence of verbal and nonverbal means on the communication process. The article provides the reader not only with theoretical knowledge, but also with the opportunity to apply this knowledge in everyday life, professional communication, and intercultural communication.*

Keywords *Verbal, non-verbal, state, conscious, means, communication*

Tadqiqotlarimiz jarayonida shuni aniqladikki, hissiy holatni uzatishda bir qator vaziyatlarda biz imo-ishoralarimiz, yuz

ifodalarimizdan xabardor emasmiz, ya'ni bu holatni o'zimiz bajarishimiz uchun ifoda etishimiz biroz qiyin. Axborotni jo'natuvchi va

qabul qiluvchi har doim aloqa jarayonida namoyon bo'lganligi sababli, noverbal signallardan ongli ravishda foydalanishda ahamiyat darajasini ajratib ko'rsatish hisoblanadi. Tahlillarimiz davomida, noverbal xatti-harakatlaridagi ongli va ongsiz ravishda qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, noverbal vositalarni ongli ravishda idrok etish qabul qiluvchiga xosdir (Конечкая, 1997). Axborot jo'natuvchisi deyarli har doim uning noverbal signallaridan bexabar, imo-ishoralari esa bundan mustasno. Qabul qiluvchining oldida jo'natuvchi tomonidan yuborilgan ma'lumotlarni to'g'ri dekodlash vazifasi turibdi. Qabul qilingan noverbal signallarni adekvat talqin qilish qobiliyati ularning tadqiqotlari uchun muhim bo'ladi.

V.P. Konetskaya fikriga ko'ra, bu jarayonda noverbal vositalardan nazorat ostida foydalanish muloqotni aniqlaydigan yuqori bilim jarayonlariga bog'liq. Inson his-tuyg'ularini yashirish uchun "niqob" kiyadi. Biroq, jo'natuvchi tomonidan noverbal signallarni ongli ravishda nazorat qilish bilan ham, qabul qiluvchi og'zaki xatti-harakatlardagi eng kichik o'zgarishlarni sezadi. Yuboruvchining haqiqiy hissiy holati beixtiyor imo-ishora, qarash, ko'tarilgan qoshlarda namoyon bo'lishi mumkin. Psixologlar tomonidan o'tkazilgan tajribalar shuni ko'rsatdiki, o'z his-tuyg'ulari haqida qasddan uzatilgan ma'lumotlar, ayniqsa yoqimli his-tuyg'ular holatida osonroq qabul qilinadi (Конечкая, 1997).

Ishtirokchi suhbatning ma'lum bir nuqtasida bajaradigan roli noverbal vositalardan foydalanishga ta'sir qilishi aniq. Axborotni jo'natuvchi va qabul qiluvchi uchun noverbal signallarning ahamiyati turlicha aks etadi hamda har xil ma'no ifodalaydi.

Tadqiqotchi olim, L.P. Yakubinskiyning so'zlariga ko'ra, tinglovchilar tomonidan qiziqish yoki e'tibor, e'tiborsizlik, hayrat yoki zerikish kabi emotsiyalarni yuz ifodasi orqali ifoda etish juda muhim hisoblanadi. Shu munosabat bilan ma'ruzachi nutqning katta yoki kichik intensivligini aniqlaydi, assotsiatsiya

osonlashadi, aksincha to'g'ri ifoda signallari topiladi. Albatta, har kim bu hodisani o'zi boshdan kechirgan, ular sizni tinglashganda va yaxshi tinglashganda, ayniqsa xotirjamlik bilan tinglashganda, nutq jarayoni osonlashadi. Shunday qilib, tinglovchining ijobiy noverbal signallarini ongli ravishda idrok etish kommunikantning og'zaki bayonotini yaratish jarayonini osonlashtiradi. Shu bilan birga, ko'pchilikka ma'lumki ma'ruzachi har doim ham o'zining noverbal signallarini boshqarishga qodir emas. Tinglovchi uchun ma'ruzachining so'zlariga hamroh bo'lgan noverbal signallar xabarni yetarli darajada idrok etish uchun zarurdir.

A. Pizning ta'kidlashicha, insonning madaniy darajasidan qat'iy nazar, so'zlar va ularga hamroh bo'lgan harakatlar shunday bashorat qilish darajasiga egaki, yaxshi, faol insonlar ma'lum bir iborani aytish paytida odam qanday harakat qilayotganini ovoz bilan aniqlay oladi (Пиз, 1992).

Ammo, ko'pchilik olimlarning tadqiqotlari A. Pizning fikrini noto'g'ri deb talqin qiladi. R. Birdvistell muloqot paytida uning imo-ishoralarni kuzatish orqali ma'ruzachi ovozining tembrini aniqlashni o'rgandi. Olim rang orqali u qanday emotsiyalarni boshdan kechirayotganini, uning noverbal harakat ma'nolarini aniqlay olgan (Birdwhistell, 1970).

Muloqot jarayonida ma'ruzachi va tinglovchi ma'lumotni ikki kanal orqali uzatadi va qabul qiladi. Ikki kanalning qaysi biri muhimligi va ma'lumotliligi jihatidan afzal ko'rilganligi to'g'risida fanda ikki xil fikr mavjud. To'g'ridan-to'g'ri, ya'ni yuzma-yuz muloqot sharoitida tovushli matnni idrok etish jarayoni yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, inson hayotning ilk davridanoq kommunikativ harakatning verbal va noverbal qismlari o'rtasida e'tiborni taqsimlash mahorati bilan tarbiyalanadi. Muloqot ishtirokchilari ongli yoki ongsiz ravishda ikkala qismning informatsion qiymatini sezadilar. Shuning uchun, harakatni tejash prinsipiga muvofiq, ba'zi bir qismdagi ortiqcha narsalarga e'tibor berilmaydi va bir

qismdagi kerakli ma'lumotlarning "yetishmayotgan" ulushi ikkinchisining hisobiga to'ldiriladi. Bu jarayonga bir necha misollar keltirish mumkin, masalan ellipsis (fr. ellipse, ingl. ellipsis) – yunoncha "ἔλλειψις" (elleipsis) so'zidan kelib chiqqan. Ma'nosi: «yetishmaslik», «qoldirish», «tushirib ketish») bu kontekst orqali tiklanadigan jumla elementining matn yoki nutqdagi kamchilik yetishmayotgan elementni noverbal signal bilan osongina almashtirish mumkin. G.Kolshanskiyning fikriga ko'ra yetishmayotgan elementlar ko'pincha ishoralar orqali o'zbek tilida bir nechta misollar keltirish mumkin, misol uchun: janoblar, iltimos,... (ko'tarilgan qo'l bilan imo-ishora tinchlanishga qaratilgan). Hozirda fransuz tilida ham bunday holatlar ko'p kuzatiladi. Masalan, Tu veux manger quelque chose ? (hausse les épaules) – Bof... pas trop. To'liq ibora: «Je n'ai pas trop envie de manger.» (Men ovqat yeyishni xohlamayman). Ellipsis: «Pas trop» + harakat (jest) yelkalarining qisilishi rad etillayotganni bildiradi. Encore ? (U qoshlarini ko'taradi va likopchaga ishora qiladi.) To'liq shakli: «Tu en veux encore ?» Lekin u faqat – "Encore ? deydi +qo'l ishorasi" va hamma narsa tushunarli. Bu noverbal hamrohlik bilan odatiy suhbat ellipsisidir.

Ma'lumki, matnni assimilyatsiya qilish ikki o'lchovli jarayon hisoblanadi, aks holda biz bayonotning haqiqatligi yoki yolg'onligini aniqlashimiz qiyin bo'ladi. Chunki bu boradagi so'zlarni baholash og'zaki ma'lumotlarning ma'nosini boshqa kanallar orqali olingan ma'nolar bilan taqqoslashdan iboratdir.

I.N. Gorelovning so'zlariga ko'ra, ko'pincha verbal belgi muayyan sharoitlarda muhim vaziyatga hamroh bo'lgan asosiy belgi sifatida harakat qiladi. Keyinchalik murakkab lingvistik ma'lumotlarni idrok etishda, biz ko'proq haqiqiy matnni idrok etish bilan shug'ullanamiz. Olimning ta'kidlashicha, nutqni qabul qilish bu nutq parallel ravishda amalga oshadigan jarayon hisoblanadi. I.N. Gorelov bu jarayonni 3 guruhga ajratgan. Bular: 1) shaklni idrok etish; 2) xabar mazmunini idrok etish; 3) aloqa holatini idrok etish (Горелов, 1980).

1. *Shaklni idrok etish* – bu bosqichda inson nutqning tashqi shaklini qabul qiladi: tovushlar, talaffuz, intonatsiya, sur'at, pauza va grammatik qurilish. Masalan, so'zlarni to'g'ri eshitish, nutqning til qoidalariga mosligini sezish shu yerda amalga oshadi.
2. *Xabar mazmunini idrok etish* – bu bosqichda nutq orqali yetkazilgan ma'no tushuniladi. Inson so'zlar ortidagi fikrni, ya'ni xabarning mazmuni va asosiy g'oyasini anglaydi. Masalan, "Iltimos, oyna och" degan iboradan faqat so'zlarni emas, balki shaxsning so'rov niyatini tushunish.
3. *Aloqa holatini idrok etish* – mazkur bosqich eng keng qamrovli bosqich bo'lib: inson nutq orqali nafaqat xabarni, balki muloqot vaziyatini ham tushunadi. Bu yerda ijtimoiy va shaxsiy omillar (kim gapiryapti, qanday ovoz bilan, qaysi holatda) hisobga olinadi. Masalan, bir xil gap do'stona holatda so'zlansa bir ma'no, tanqidiy vaziyatda aytilsa boshqacha ta'sir qiladi.

Kommunikativ harakatning boshida qabul qiluvchining o'tmishdagi aloqa tajribasidan kelib chiqqan holda ma'lum bir yo'nalish mavjud bo'lib, buning natijasida qabul qiluvchi kelajakdagi xabarning mazmuni haqida ba'zi farazlarni ilgari suradi. Qo'shimcha noverbal ma'lumotlarni qabul qilish ba'zan haqiqiy nutqda hali amalga oshirilmagan tarkibdagi asosiy o'zlashtirish uchun yetarli bo'lishi mumkin, ya'ni kimnidir fikrini, narsani boshqa bir kishi oladi va uni o'zlashtiradi. Odatiy holatda, noverbal ma'lumotlarni hisobga olgan holda, og'zaki berilgan tarkibning assimilyatsiyasini to'g'rilaydi.

Biroq xabar yetarlicha murakkab bo'lsa va aloqa aktining boshida ilgari surilgan gipoteza tasdiqlanmasa, qabul qiluvchi tovush shaklini olishni davom ettirishi kerak. Ma'lumki, nutqni qabul qilishda gap tarkibini idrok etish, ya'ni nutq so'zlash shaklini idrok etish vaqtga to'g'ri kelmaydi, ya'ni ular sinxronlashtirilmaydi. Tinglovchi ko'pincha unga aniq nima deyilishini

va kamdan-kam hollarda qanday aytilishini bilishini ta'kidlaydi. Verbal signallar har doim ham tayyor ma'noga ega emas. Deyarli har qanday birlik kontekstda har qanday ma'noni ifoda eta olishi mumkin, ya'ni sinonimlar, polisemiya, turli so'zlar bir xil belgini ifoda etadi.

Tahlillarimiz davomida, muloqotda noverbal vositalardan foydalanish, odam har doim bilvosita xulosalarning eng murakkab tizimlaridan foydalangan holda har qanday xabarning parolini hal qila oladi degan tushunchani asoslaydi. Ular muloqot jarayonida evristik ("Evristik" so'zi o'rganish, kashf qilish yoki yangi bilim va yechimlarni topish bilan bog'liq ma'noni anglatadi.) fikrlash meyorlariga muvofiq davom etadi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, tilning asosiy shakllari – tushuncha, hukm, xulosa bilan mantiqiy fikrlash tizimi shakllangan inson tafakkuri rivojlanishining o'sha bosqichining mahsuli hisoblanadi. Verbal va noverbal vositalar bilan uzatiladigan ma'lumotni dekodlash jarayoni inson tafakkuriga xos bo'lgan mantiqiy hamda konseptuallika asoslanadi. Rus olimi G.V. Kolshanskiyning fikricha dekodlash mexanizmi xabarni bilvosita idrok etishdan iborat bo'lib, u ikki bosqichdan o'tadi. Birinchi bosqich – bu faqat verbal tuzilmani idrok etish. Ikkinchi bosqich – verbal tuzilishda mavjud bo'lmagan semantika elementlarini to'ldirishga qaratilgan ma'lum xulosalar zanjiri hisoblanadi (Kolshanskiy, 1984).

Shuningdek inson dastlab lingvistik vositalar bilan uzatiladigan ma'lumotlarni qabul qiladi, agar lingvistik yetishmovchilik bo'lsa, noverbal holda ifodalangan fikrlar dekodlashtiriladi. Biroq, bu nuqtai nazarga ham G.V. Gorelov, " biz birinchi navbatda lingvistik bo'lmagan signallarni qabul qilamiz" deb da'vo qiladigan ba'zi xorijiy tadqiqotchilarning fikriga qarshi chiqadi. Aloqa ishtirokchilarining tashqi ko'rinishi ham noverbal signallarga tegishli bo'lsa, ularni mavjud bo'lish huquqi yanada yaqqol aks etadi. Ammo, olim G.V. Gorelov bu ikkita mavjud fikrga to'liq qarshi bo'lmaydi.

Shubhasiz, aloqa jarayonining turli bosqichlarida verbal va noverbal bo'lmagan vositalarning funksiyasi imkonsiz deb ta'kidlaydi. Shu bilan birga, taxlillarimiz davomida verbal va noverbal bo'lmagan ifoda etilgan narsalar o'rtasidagi nomuvofiqlik holatida noverbal signallarning roli muhim hisoblanadi. Bunday xulosa, albatta, eksperimental tasdiqlashni talab qiladi, ammo noverbal vositalarni tadqiq qilishning ushbu bosqichida tilshunoslar ko'pincha olingan natijalarning to'g'riligini isbotlash uchun tajriba ishtirokchilarining sezgi va subyektiv tajribasiga murojaat qilishlari kerak. Biror kishi sezgi borligini aytganda, ular verbal signallarni noverbal signallar bilan muvaffaqiyatli taqqoslashini anglatadi. Bu yerda sezgi insonning ikki kanal orqali uzatiladigan ma'lumotni yetarli darajada idrok etish qobiliyatini anglatadi, bu esa oxir-oqibat samarali muloqotga olib keladi. Ularning nomuvofiqligi bo'lsa, ko'p hollarda inson haqiqatni so'zlamayapti degan xulosaga keladi.

Bizning fikrimizcha, signallarni aniq dekodlash uchun ularni ongli ravishda idrok etish kerak. Ma'lumki, har bir axborotni dekodlashda verbal va noverbal vositalardan muvofiqlashtirilgan yoki muvofiqlashtirilmagan foydalanish alohida ahamiyatga ega. Yuqorida aytib o'tilganidek, insonlar birinchi navbatda noverbal muloqotga ko'proq e'tibor berishadi. Keyin ular so'z tanlash, jumla tuzilishi, intonatsiya kabi verbal jihatlariga e'tibor qaratadilar. Biroq, ko'pincha kommunikatorlar ikkala darajadagi signallarni bir vaqtning o'zida sezadilar, lekin odatda ikkalasiga ham yuqorida aytib o'tilganidek, bir-biriga zid kelganda ular birgalikda ifoda munosabatida bo'lishadi. Shunday qilib, izchillik va nomuvofiqlik noverbal signallarni baholash mezonlaridan biridir. Tadqiqotlar davomida olimlar, bolaning ongida eng mehribon so'zlarni e'tiborsiz qoldirib, tanish yoki notanish odam bilan bog'lanishni istamasligi isbotlangan. Ba'zi hollarda verbal va noverbal signallar o'rtasidagi nomuvofiqlik ta'siri bor, shu bilan birga,

noverbal signallarning ma'nosi yosh bola uchun muhimroqdir. Nemis olimi, Vera Birkenbilning fikriga ko'ra, nomuvofiqlik quyidagilarni anglatishi mumkin:

1. Xulq-atvor va verbal so'zlar o'rtasidagi nomuvofiqlik (mos kelmaslik).
2. Kuzatilgan signal va taxminlar o'rtasidagi tafovutlar, masalan aytaylik, siz kimgadir sovg'a taqdim etyapsiz va o'sha inson xursand bo'lishiga aminsiz, lekin siz sherigingiz hafsalasi pir bo'lganini yoki ko'zlarini olib kochganini ko'rasiz. Bu nomuvofiqlik, ya'ni siz bitta reaksiyaga ishongan edingiz, lekin aslida siz butunlay boshqacha reaksiyani ko'rdingiz.
3. Imo-ishoralarda aniq nomuvofiqlik omili bo'lishi mumkin, bu aslida mavjud emas. Ba'zi odamlar gaplashayotganda qo'llarini harakatsiz silkitadilar yoki ritmik ravishda stolni taqillatadilar, garchi ular bu bilan qo'shimcha hech narsa aytishni xohlamaydilar. Bu signallar aytilgan so'zlar bilan hech qanday aloqasi yo'qdek tuyuladi va ular ham noo'rin deb qabul qilinadi. Ammo, Abdulla Qahhorning «Sarob» asarida stolni taqillatish orqali e'tiborni qaratish holati kuzatiladi. Mazkur noverbal harakat suhbatni to'xtatish, jimlikni o'rnatish va nutqning psixologik ta'sirini kuchaytirish vazifasini bajaradi.

Ma'lumki, tana signallari aytilgan so'zlarga mos keladigan bo'lsa, ular ko'pincha e'tiborga olinmaydi yoki so'zlarning tasdig'i sifatida qabul qilinadi. Nomuvofiqlik yoki kelishmovchilik ko'pchilikda salbiy taassurot qoldiradi, masalan insonlarda noxush tuyg'u bor – "ishonmaslik". Bu tuyg'uni deyarli har birimiz boshdan kechiramiz. Ammo dekodlashda (Kodlash – odam so'z, ovoz, mimika, jest orqali ma'lumotni yuboryapti. Dekodlash -kuzatuvchi bu signallarni qabul qiladi va ularning ma'nosini yechadi.) tajribali odamgina qaysi signallar bunday tuyg'uga

sabab bo'lganini aniq ayta oladi. Misol uchun: so'z va yuz ifodasi o'rtasidagi nomuvofiqlik: Inson "Men xursandman" deydi, lekin yuzida tabassum yo'q, aksincha qoshlari tortilgan yoki lablari qattiq yopilgan. Bu holat atrofda gilarada ishonchsizlik uyg'otishi mumkin. 2. Jismoniy harakat va verbal bayonot o'rtasidagi ziddiyat "Menda hech qanday xavotir yo'q" deydi, lekin qo'llari titraydi yoki qo'llari bilan kiyimini bezovta silab turadi. Tana xavotirni "oshkor qiladi". 3. Ko'z va qo'l-barmoq harakatlari orasidagi nomuvofiqlik cizga gapirayotganda "senga ishonaman" deydi, lekin ko'zlarini chetga oladi va qo'llarini orqasiga yashiradi. Bu holda aytilgan so'zdan ko'ra, noo'rin signal kuchli ta'sir qoldiradi. 4. Tabassum va ovoz ohangidagi ziddiyat: Inson tabassum qiladi, ammo ovozi hazil yoki samimiylik emas, balki kinoya bor. Bu ham ko'pincha "ishonmaslik" hissini paydo qiladi. 5. Muloqot paytidagi signallar noto'g'riligi: Inson "Men qiziqyapman" deydi, ammo mobil telefoniga qarab, nimadirni kuzatadi, ko'radi yoki bo'lmasa parallel ish bilan ovora bo'ladi. Muloqotdagi bu nomuvofiqlik suhbatdoshda "men u uchun muhim emasman" degan hissiyot uyg'otadi (Ekman & Friesen, 1969; Knapp et al., 201).

Noverbal signallarni baholashning bir nechta turlari mavjud. Bular: 1) pozitivlik, 2) negativlik, 3) g'azablanish, 4) achchiqlanish, 5) mamnunlik, 6) quvonish va hokazolar. Tabiiyki, biz signallarni "yaxshi" va "yomon" deb qabul qilamiz, ya'ni ularni tez va oson "ijobiy" hamda "salbiy" deb tasniflaymiz. Shu bilan birga, xulq-atvorning umumiy qoidalari ma'lum bir doirada va ma'lum bir davrda shakllanganligini esga olish kerak. Biz boshqa madaniyat vakillari bilan qanchalik tez-tez muloqot qilsak, individual signallarni "yomon", ya'ni salbiy deb qabul qilish xavfi shunchalik katta bo'ladi. Haqiqatni nazorat qilish suhbatdoshning xulq-atvor normalari haqidagi boshqa g'oyalari tufayli "salbiy" signal paydo bo'lishi mumkinligini eslatishi kerak. Bu turli madaniyat vakillari o'rtasidagi muloqotga tegishli hisoblanadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Birdwhistell, R. L. (1970). *Kinesics and context: Essays on body motion communication*. University of Pennsylvania Press.
2. Ekman, P., & Friesen, W. V. (1969). The repertoire of nonverbal behavior: Categories, origins, usage, and coding. *Semiotica*, 1(1), 49–98. <https://doi.org/10.1515/semi.1969.1.1.49>
3. Knapp, M. L., Hall, J. A., & Horgan, T. G. (2014). *Nonverbal communication in human interaction* (8th ed.). Cengage Learning.
4. Горелов, И. Н. (1980). *Невербальные компоненты коммуникации*. Наука.
5. Колшанский, Г. В. (1984). *Паралингвистика*. Москва: Наука.
6. Конечкая, В. П. (1997). *Межкультурная коммуникация*. Наука
7. Конечкая, В. П. (1997). *Психология межличностного общения*. Издательство МГУ.
8. Пиз, А. (1992). *Язык телодвижений*. Прогресс.